HABIBIY G‘AZALLARINING VAZN XUSUSIYATLARI

Gulhayo Ahmadaliyevna Haydarova
h.gulhayoxon90@gmail.com
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida XX asrda yashab, ijod qilgan shoirlardan biri Qo‘qon adabiy muhiti vakili Habibiy g‘azallarining vazn xususiyatlari va asarlarida ko‘p qo‘llangan bahrlar tadqiq qilingan. Uning “Devon” hamda “Tanlangan asarlar”idagi g‘azallar vazni va ularga hazrat Alisher Navoiy ta’siri masalalari yoritilgan. Turkiy aruzning nazariy va amaliy masalalari, taraqqiy etishi bevosita Navoiy ijodi bilan bog‘liq ekanligi, Habibiy g‘azallarning vazn masalalari yuqoridagi ikki nashr asosida qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azalchilik, vazn, aruz ilmi, “Mezon ul-avzon”, Habibiy, bahr, komil bahri, hijo, an’ana va izdoshlik masalasi

METRIC FEATURES OF HABIBI'S GHAZALS

Gulhayo Akhmadaliyevna Haydarova
h.gulhayoxon90@gmail.com
Kokand State University

Abstract: This research study examines the meter characteristics of Habibi's ghazals and the meters frequently used in his works, one of the poets who lived and worked in the 20th century and a representative of the Kokand literary environment. The meter of his ghazals in "Devon" and "Selected Works" and the influence of Hazrat Alisher Navoi on them are highlighted. Theoretical and practical issues of Turkic aruz, the fact that its development is directly related to Navoi's work, and the meter issues of Habibi's ghazals are analyzed comparatively based on the above two publications.

Keywords: ghazalism, meter, science of aruz, "Mezon ul-avzon", Habibi, meter, perfect meter, hijo, tradition and the issue of succession

Mumtoz adabiy asarlar tadqiqi masalasi o‘rganilar ekan, ilmi aruz doimo birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Chunki “…aruz fanikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur. Nevchunkim, nazm ilmining rutbasi bag‘oyat biyik rutbadur. Andoqki, Haq subhonahu taoloning kalomi majidida ko‘p yerda nazm voqe’ bo‘lupturki, aruz qavoidi bila rostdur”[Alisher Navoiy.1:45]. Bu aruz vaznning qanchalik yuqori qiymatga ega ekanligini ko‘rsatuvchi isbot va Sharq mumtoz adabiyoti tarixida “sharif fan” vaznlaridan eng mukammal foydalangan ijodkorning aruzga bergan bahosi hamdir. U

(cc) BY

o‘z g‘azallari misolida o‘rta asrlarda arab hamda fors-tojik adabiyotida ancha mukammal ishlangan, go‘zal lirik she’rlar, devonlar shaklida ommalashgan aruz vaznini turkiy til imkoniyatlari vositasida badiiylikning eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tardi va bu bilan aruz fanining o‘zbek tili doirasidagi nazariy hamda amaliy taraqqiyotiga asos soldi. Navoiy o‘zining aruz fani nazariyasiga bag‘ishlangan «Mezon ul-avzon» asarida bu ilm sohasidagi ma’lumotlarni yig‘ib, tartiblab va tushuntirib berish bilan chegaralanib qolmadi. Uning bu risolani yozishdan asosiy maqsadi aruz fanidagi muammolarni ommalashtirish, ularni arab va fors-tojik adabiyotlari maydoniga olib kirishgina emas, balki aruz masalalarining birmuncha yangi talqinini berish va aruzni boyitishdan iborat edi.

XX asrdagi aruzga bo‘lgan munosabat ko‘plab ziddiyat va ilmiy bahslarga sabab bo‘lgani uchun ayrim shoirlar bu vaznni tark eta boshlaganlar. Fitratning “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” asarlarida aruz masalalariga oid qator fikrlar bildirilgan. Olimning aruzni an’anaga ko‘ra mutaharrik va sokin harflar asosida emas, bo‘g‘in usulida turkumlar bo‘yicha tushuntirishga harakat qilganini alohida ta’kidlash lozim. Ayni shu usul bugungi kunda xam arab yozuvini bilmagan o‘kuvchi uchun aruzni o‘rganish imkonini ochadi.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan taraqqiy etishi bevosita Navoiy ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, “Mezon ul-avzon” asarida 19 bahr, 160 vazn haqida ma’lumot berdi; 12 bahr, 100 ga yaqin vazndan keng foydalandi va bu bilan aruz tizimi turkiy she’riyatning ajralmas qismiga aylanganligini asoslab, bu she’riy tizimning turkiy til qonuniyatlariga har tomonlama mos kelishini isbotladi[Sirojiddinov Sh. Yusupova D. Davlatov O. 5:520].

XX asrda yashab, ijod qilgan Habibiy g‘azallaridagi poetik masalalar yoritilar ekan, bunda vazn o‘q tomirlardan hisoblanadi. She’riy asarning muhim unsuri bo‘lgan vazn “nazmdagi satrlarga yagona usul (ritm) bag‘ishlaydi”[Rustamov A.2:83]. Ijodkorlar o‘z she’rlari uchun vazn tanlashda she’rning mavzusi, g‘oya va obrazlarining vazn bilan mutanosiblashuviga e’tibor qaratganlar.

Habibiyning tiriklik chog‘ida nashr etilgan “Tanlangan asarlar”i va bir necha bor chop etilgan “Devon”ining so‘ng qismida ayrim g‘azallarning vazn ko‘rsatkichlari berilishi hazrat Navoiyning bevosita ta’siri natijasidir. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida vazn nomlarini g‘azal tepasiga yozib qo‘yish mazmunida fikr bildirgan. Uning davrida Sulton Husayn Boyqaro topshirig‘i bilan Amir Xusrav Dehlaviy devonidagi g‘azallar vazni nomini yozib chiqishga buyruq berilgan. Hatto “Mezon ul-avzon”ning yaratilishiga turtki bo‘lgan omillardan biri ham shudir. Ushbu an’anani Habibiy o‘ziga xos tarzda davom ettirishga erishgan. 1960 yilda nashr etilgan “Tanlangan asarlar”i oxirida “Habibiyning aruz vaznida yozgan she’rlarining hijolari va shakllari” sarlavhasi ostida qirqta g‘azal matla’si keltirilib, ulardagi hijolarning soni ko‘rsatilgan. Bahr nomi va boshqa xususiyatlar tilga olinmagan. Aslida, bu to‘plamda

(cc) BY

106 nafar g‘azal jamlangan edi. Fikrimizcha, muallif takror qo‘llangan bahrlarni hisobga qo‘shmagan bo‘lsa kerak. Keyinchalik, 1975-yil chop etilgan “Devon”ning oxirida 44 ta g‘azalning hijolar miqdori va endi bahrlarning nomi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ammo shu bahrlar nomlanishida, vazn taqte’larini belgilashda ayrim saktaliklarga yo‘l qo‘yilganini ham tan olish joiz. Bu saktaliklarni shoirning vaznni chuqur bilmasligidan emas, balki yuqorida ta’kidlanganidek, XX asrning ikkinchi va uchinchi choragida ko‘plab adabiyotshunoslarning aruz vazniga bo‘lgan biryoqlama munosabati natijasida bo‘lgan desak, xato bo‘lmaydi. Masalan: 1965-yilda nashr etilgan “Tanlangan asarlar” to‘plamida shoirning o‘zi quyidagicha tasniflagan, chap tarafda hijolar miqdori va yonida g‘azal matla’si berilgan :

10 Chin mehr ila jonu dil xaridor,

Ey menga sevikli, yaxshi dildor ...

16 Yuzing visolidin sahar sevinch olib sabo kelur,

*Na xush, dimog‘ uchun yana shirin shakar havo kelur[*Habibiy.3:343-345*].*

kabi shaklda o‘ndan o‘n oltigacha (birinchi bayt 10, ikkinchi bayt 11, uchinchi bayt 12, to‘rtinchi bayt 13, beshinchi bayt 14, oltinchi bayt 15, yettinchi bayt 16) hijodan tashkil topgan qirqta g‘azalning matla’si keltirilgan. Ammo ayrim o‘rinlarda belgilangan vaznlarda saktaliklar uchragan. Misol uchun o‘n hijolik deb ko‘rsatilgan quyidagi baytning ikkinchi misrasi o‘n bir hijodan iborat:

Bizlarga iqbol, ko‘rsatdi jamol,

*Qazig‘aymiz kanal, bo‘ldik barkamol[*Habibiy.3:343-345*].*

Fikrimizcha, *qazig‘aymiz* so‘zi qo‘lyozmada *qazg‘aymiz* shaklida bo‘lgan, ko‘chirishda xato qilinganga o‘xshaydi.

Mumtoz aruz vaznlarining ishlatilishi xususida matbuotda professor A.Rustamovning o‘tgan asr 70-yillarining boshlaridagi Habibiy ijodi misolidagi kuzatishlari e’lon qilingan edi. Ushbu kuzatishda olim Habibiyning 1960 yilda chop etilgan bir to‘plamiga kiritilgan she’rlarini bahrma-bahr aniqlab beradi. Uning aniqlashicha, uning she’rlarida asosan hazaj, ramal, rajaz, munsareh, muzore, mujtass, sare, mutaqorib, mutadorik kabi aruz vaznlaridan foydalanilgan.

Shoirning 1975-yil nashr etilgan “Devon”ida esa bu kabi kamchiliklar birmuncha to‘ldirilgan. Devonda muallif tomonidan yozilgan so‘zboshi ham mavjud bo‘lib, unda muallifning aruz vazni haqidagi qarashlari va aruz ilmiga oid asarlarni o‘rgangani xususida fikrlari mavjud. Ushbu so‘zboshida Habibiy Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Hoja Nasiri Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Aruz. Muhammad Binnil Qays”, “Hadoyiq ul-Ajam” asarlari haqida xabar berar ekan, aruzning asosiy bahrlari o‘n to‘qqiz xil ekanini, shoxcha (tarmoq) lari bilan yuzdan oshishini, har qaysi bahrning alohida bir baytdan iborat qalb va o‘lchovi, nomi borligini ta’kidlaydi. Hazrat Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarlari to‘g‘risida esa alohida to‘xtalib o‘tadi: “Alisher Navoiy ham o‘tmish adiblarining asarlaridan

(cc) BY

mukammal foydalanib, o‘zbek she’rlarining vaznlariga moslab “Mezon ul-avzon” (Vaznlar tarozusi) nomi bilan puxta ilmiy bir asar yozib, bizlarga qoldirganlar. Kamina o‘z merosimiz bo‘lgan bu qimmatli asarni ikki-uch karra qiziqib o‘qir ekanman, aruzning turli vaznlari men uchun mahbub va marg‘ubroq tushdi. Turli vaznlarda turli she’rlar yozib, ustozlarning uslubiga ko‘ra bilimimga loyiq bir devon tuzish orzusi ko‘nglimga g‘ulg‘ula soldi… qo‘lingizdagi devonni aruzning qirq besh xil vazni va bu bahrlarning ismlari bilan tuzishga kirishdim”[Habibiy.4:14].

Mazkur devonning so‘nggi qismida qirq to‘rt g‘azalning hijolar miqdori, bahr va ruknlarning nomi ham ko‘rsatib o‘tilganini alohida e’tirof etish joiz [Habibiy.4:528-534]. Devon yakunida rajaz, mutaqorib, ramal, sare’, hazaj, xafif, muzore’, munsareh, madid, mujtass, komil kabi bahrlarda yozilgan g‘azal baytlaridan misollar ko‘rsatiladi.

Aruz vazni bahrlari orasida mavjud komili musammani solim bahri she’riyatda kamdan-kam hollarda qo‘llaniluvchi o‘lchov hisoblanadi. Mazkur bahr “Mezon ul-avzon”asarida: “…oltinchi daraki, andin ikki bahr mustaxraj bo‘lur, bu ham ajam shuarosi aruzlarida ko‘rilmaydurkim, alardin biri komil bahridurur… musammani solimda oz she’r voqe’ bo‘libtur” deb izohlangan. O‘zbek she’riyatida ushbu bahr ilk marotaba Alisher Navoiy tomonidan qo‘llangan:

Ne xayol edi yanakim ko‘ngul qushi saydini havas aylading,
Badanimga xar saridin hadang otibon anga qafas aylading.

Xorazm adabiy muhitining yirik vakillari hisoblangan Shermuxammad Munis va Ogahiylar ham komil bahrida g‘azal yozganlari ma’lum. Shayx Ahmad Taroziy va Boburlar tomonidan ham bu bahr xususida yetarlicha ma’lumot berilgan. Navoiy an’analarining davomchisi sifatida Habibiy ham bu vaznda o‘z iqtidorini ko‘rsata oldi. 1975- hamda 1980- yilda nashr etilgan “Devon”larning barchasida mavjud 1967 yil mahsuli bo‘lgan quyidagi g‘azal ham xuddi shu bahrda yozilgan:

Naxush, o‘rgilay,/ karaming bila /qarasang kulib, /nazar aylasang,
Yuragingdagi/ g‘arazingni ham /bilayin, nadur, /xabar aylasang.
V V - V - / V V - V - / V V - V - / V V - V -
Mutafoilun/mutafoilun/mutafoilun/mutafoilun

Komil bahrida g‘azal yoza olish ijodkorning aruz ilmini puxta o‘zlashtirgani va ijodiy salohiyatini naqadar yuqori ekanligini yana bir bor namoyon etadi. Ushbu g‘azal aruzning kam sonli shoirlar yozishga muvaffaq bo‘lgan komili musammani solim vaznida ekanligi, teran mazmuniyu badiiyati bilan ham Habibiyning Alisher Navoiy an’analarini munosib davom ettira olganining isbotidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asrda jamiyat hayotida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar tufayli o‘zbek aruzi biroz oqsagan bo‘lsa-da Habibiy o‘z g‘azallari orqali aruz vaznini saqlab qolishga urindi va kelgusi avlodga aruzni yetkazib berishda o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajardi.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n oltinchi tom. Mezon ul-avzon. -T.: Fan, 2000. -B.45.

2. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. -T.: Fan, 1972. -B.83.

3. Habibiy. Tanlangan asarlar. -T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. -B.343-345.

4. Habibiy. Devon. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. - B.14.

5. Sirojiddinov Sh. Yusupova D. Davlatov O. Navoiyshunoslik. - T.: Tamaddun, 2018. - 520 b.

6. Haydarova G. Sobir Abdulla, Charxiy va Habibiy g‘azaliyotining vazn xususiyatlariga doir. 3rd -International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Berlin, Germany June 30th 2022. https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/723

7. Г.Хайдарова. XX аср ўзбек ғазалчилигида Алишер Навоий анъаналари ва ўзига хосликлар. Монография. - Фарғона:“Classik” нашриёти, 2023. - Б.144.

(cc) BY